

Termiz shahrida klinik va paraklinik majmuasining ochilish marosimi o'tkazildi



Termiz shahrida klinik va paraklinik majmuasining ochilish marosimi o'tkazildi. Termiz shahar tibbiyot birlashmasiga qarashli markaziy shifoxonaning klinik va paraklinik majmuasi vohamiz aholisiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish uchun 2021 yil 21 aprel kuni o'z ish faoliyatini boshladi. Tantanali ochilish marosimida Termiz shahar hokimi o'rinbosari Kamol Ashurov, shahar nuroniylari nomidan Shokir hoji Xodjaev, Termiz shahar madaniyat bo'limi ijodiy jamoasi vakillari hamda boshqa hamkor tashkilotlar ishtirok etishdi.

Tadbir davomida Termiz shahar madaniyat bo'limi ijodiy jamoasining ko'ngillarni xushlovchi taronalari yangrab, tibbiyot sohasi xodimlarining raqslariga ulanib ketdi. Tadbir yakunida tashrif buyurgan mehmonlar ishtirokida zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan majmua bilan tanishish uchun ramziy lentalarni qirqish marosimi o'tkazildi.

